

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

«TASDIQLAYMAN»

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti
rektori Sh.Sirojiddinov**



30-oktabr 2025-yil

**10.00.06 –Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik ixtisosligi
bo‘yicha tayanch doktoranturaga
kirish imtihoni dasturi**

TOSHKENT – 2025

Ushbu dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi (2025-yil 28-oktabrdagi 4-sonli bayonnoma).

Tuzuvchilar: **f.f.d., prof. Sh. Sirojiddinov**
 f.f.d., prof. U.Jo'raqulov
 DSc, dotsent N.Normurodova
 PhD, dotsent M.Asadov
 PhD, dotsent D.Muhammadiyeva

KIRISH

Mamlakatimiz ravnaqi, ta'lim sohasi taraqqiyoti va chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorini amalga oshirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikning ham o'z maqsadi va vazifalari bor. Zotan, adabiyot, til va tarjima azaldan xalqlarning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-siyosiy integratsiyasi uchun asosiy vosita vazifasini o'tab kelgan. Shunday ekan, yurtimiz iqtisodining gullab-yashnashida yuqorida sanab o'tilgan sohalarining o'ziga xos o'rni bor.

Yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashda tayanch doktorantlar uchun dastur tuzish hozirgi kundagi ta'lim yo'nalishining dolzarb masalalaridan biridir.

Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lish va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish uchun dasturlarning ahamiyati kattadir.

Mazkur dastur qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun mo'ljallangan, shuningdek, hozirgi zamon o'zbek va jahon adabiyoti hamda ingliz va ona tillari qiyosiy tipologiyasining fundamental muammolariga va tipologik tadqiqotlarning zamonaviy yo'nalishlariga qaratilgan. Unda qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik bo'yicha fanning asosiy rivojlanish bosqichlari va faktorlari, tipologik tadqiqotlarning printsiplari va kategoriyalash tamoyillari, adabiy jarayonlar, german, slavyan va turkiy tillarining yuzaga kelish evolutsiyasi va qiyosiy tahlili, tillarning tiplari va qarindoshlik darajasiga ko'ra turlari kabi masalalarga tanqidiy yondashishni ko'rsatish va ular xaqida ilmiy tushunchalar hosil qilish asosiy maqsadlaridan biridir, zamonaviy yo'nalishlar, komparativistik va lingvistik maktablar, komparativistik va lingvistik konsepsiyalar, zamonaviy tarjima nazariyasi va amaliyotida umume'tirof etilgan tendensiyalar, tarjima turlari va usullari, leksik-semantik va grammatik muvofiqlik kategoriyalari, nazariy ta'limotlar, ilmiy izlanishlar, dolzarb muammolarga bag'ishlangan masalalar yoritilgan.

FANNI O'ZLASHTIRISHGA QO'YILGAN TALABLAR

TAYANCH DOKTORANTLAR:

- qiyosiy tarixiy metod va uning asoschilari, asosiy tushunchalari; makro va mikrokomparativistika; Sharq va G'arb adabiy aloqalari, tarjima tanqidi, badiiy matnning qiyosiy tahlili mezonlari kabilar haqida imkon qadar nazariy bilimga ega bo'lishi;
- qiyosiy tadqiq metodologiyasi va uning asosiy tushunchalarini izohlay olishi;
- qiyosiy adabiyotshunoslikka oid asosiy adabiyotlarni va ularning qisqacha mazmunini bilishi;

- qiyoslash orqali adabiy hodisalarning umumiy va xos tomonlarini aniqlash, poetika, adabiy aloqalar va adabiy ta'sir masalalarini tahlil qila olishi;
- Til tarixi va nazariyasi to'g'risida keng bilimni egallay olish, dunyo tillarining umumiy va xususiy qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi, tilshunoslik tarixi, tilshunoslik maktablari, zamonaviy tilshunoslik masalalarini va tilshunoslik metodlarini bilishi;
- Chet tilini o'rganish amaliyotida nazariy bilimlarni qo'llash, tilshunoslik bo'yicha ilmiy izlanishlarga kasbiy nuqtai nazardan qarash, dunyo tilshunosligida ro'y berayotgan jarayonlarni o'zaro bog'liqlik nuqtai nazardan tahlil qilish, tillarning umumiy va xususiy belgilari haqidagi tushunchalarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishi;
- tillarni qiyoslash sohasidagi nazariy bilimlarini ko'rsatish va chet tillar tuzilmalaridagi o'xshashlik va farqlarini o'zlashtirishi bilan birga to'g'ri foydalanish va malakasiga ega bo'lishi;
- qiyosiy tilshunoslik fundamental masalalari bo'yicha nazariy bilim asoslarini bilishi;
- turli konsepsiyalarni tanqidiy baholash va ularni qiyoslanayotgan tillarning materiali asosida tahlil qilishi;
- qiyosiy tipologiyaning asosiy rivojlanish bosqichlari va faktorlari; tipologik tadqiqotlar tarixi va metodlari; tipologik tadqiqotlarning prinsiplarini bilishi;
- qiyosiy tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi va ularning qiyosiy tipologiyaga ta'sir qilish yo'llarini aniqlash;
- qiyosiy tilshunoslik fanining metodologiyasini qo'llay olish ko'nikmalarini xosil qilish;
- qiyosiy tilshunoslik fani bo'yicha yangi yo'nalishlarning mavjudligi va ularning talqinini bilishi;
- tarjima metodlarini bilishi va amaliyotda qo'llay olishi;
- tarjima, tarjima turlari, tarjima tanqidi haqida umumiy tasavvurga, aslyat va tarjimani qiyoslashga oid muayyan bilimga ega bo'lishi;
- O'zbekistonda va xorijiy davlatlarda nashr qilingan ilmiy adabiyotlar bilan ishlash va lingvistik adabiyotlardan samarali foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

DASTURNING MAZMUNI

Filologik komparativistika: manbaviy asoslari, metodologik xossalari. Filologik komparativistika, uning tarkibiy qismlari: qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik. Filologiya va uning barcha bo'limlari komparativistika obyekti bo'lishi mumkinligi. Komparativistikaning adabiyot, til, tarixga oid manbalarga asoslanishi. Milliy madaniyatlar, folklor va etnogarfiya komparativistikaning eng qadimgi tayanch obyekti ekanligi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik va chog'ishtirma tilshunoslikning predmeti. Fan predmetini jahon xalqlari badiiy va lingvistik tafakkurining sinkretik shaklga

ega bo'lgan, hali estetik bosqichga o'tmagan, badiiylashmagan ibtido davrlaridan bugungi adabiy jarayongacha bo'lgan adabiy tamoyillar, maktablar, yo'nalishlar, oqimlar, ijodiy metodlar va individual ijodkorlarga xos poetik usul va kashfiyotlar tashkil etishi. Shuningdek, azaldan davom etib kelayotgan Sharq va G'arb tarixiy, ijtimoiy, madaniy, falsafiy, adabiy aloqalari, bunday aloqalar tufayli paydo bo'lgan manbalar va ularning badiiy mohiyatini o'rganish orqali adabiyot va til tarixi, nazariyasi bilan bog'liq muhim xulosalar chiqarishning muhimligi.

Qiyosiy adabiyotshunosliklik tarixi, o'rganilishi hamda vakillari. Og'a-
ini Vilgelm va Yakov Grimmlar, ularning qiyosiy adabiyotshunoslik tarixida tutgan o'rni. Frans Bopp, Rasmus Rasklarning komparavistik tadqiqotlari. A.N.Veselovskiyning "tarixiy poetika"ga doir qarashlari va uning qiyosiy adabiyotshunoslikning akademik yo'nalishni boshlab berganligi, ilmiy g'oyalari, kuzativ, xulosa va gipotezalari XX asr dunyo adabiyotshunosligi taraqqiyoti uchun fundamental mohiyat kasb etishi. Olga Mixaylovna Freydenberg, Mixail Mixaylovich Baxtin, E.M.Meletinskiylarning qiyosiy tahlil konsepsiyalari. F.I.Buslayev, N.I.Konrad, V.M.Jirmunskiy, E.E.Bertels, o'zbek adabiyotshunosligida G'.Salomov, F.Sulaymonova, N.Komilov, B.Qosimovlarning qiyosiy adabiyotshunoslikka qo'shgan hissalar.

Qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi. Qiyosiy adabiyotshunoslik va qiyosiy lingvistika asosida "tarixiy poetika" va "tarixiy tilshunoslik" ilmlarining turishi. Sinkretizm, sitetizm va paradoksal sintetizm tushunchalari. Ularning badiiy manbalarni qiyosiy o'rganishdagi o'rni. Qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasini tashkil etuvchi ilmiy metod va maktablar: tarixiy poetika, komparativistika yo'nalishlari, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik metodlar, "madaniy-tarixiy, mifologik, psixologik maktablar qiyosiy adabiyotshunoslikning metodologik asosi ekanligi. Biografik, soziologik, struktural metodlar qiyosiy adabiyotshunoslikning yordamchi metodologik omili bo'lib xizmat qilishi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik va chog'ishtirma tilshunoslikning tarkibiy qismlari. "Qiyosiy adabiyotshunoslik" fanning aniq va o'zgarmas tarkibiy qismlari. Bularning sinkretizm, tipologiya, sintetizm, adabiy ta'sir, adabiy aloqalar, tarjima va tarjimashunoslik singari nazariy va amaliy yo'nalishlardan iborat ekanligi. Har bir yo'nalishning qiyosiy adabiyotshunoslik muammolarini tushunish, jahon badiiy tafakkurini kompleks qabul qilish, adabiyot tarixini bosqichma bosqich o'rganish, jahon adabiyotiga xos nazariy masalalarni anglashdagi ahamiyati.

Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslikning manbalari. "Qiyosiy adabiyotshunoslik" fani o'zining geografik qamrovi, xronologik davrlashtirilishiga ko'ra global miqyosni egallashi. Jahon xalqlari badiiy tafakkuri namunalarining har qanday namunasi – u diniy, mifologik yoki folklor, klassik yoki zamonaviy adabiyot namunasi bo'lishidan qat'i nazar – qiyosiy adabiyotshunoslik manbai bo'lishi mumkinligi. "Qiyosiy adabiyotshunoslik" fani chek-chegarasiz manbalarni ikki jihatdan o'rganishi: nazariy va amaliy. Fanning nazariy masalalari adabiyotdagi sinkretiklik, tipologiya, adabiy ta'sir va adabiy aloqalar asosida ijodiy metodlar, oqimlar, adabiy turlar, janrlar, badiiy asar syujeti, kompozitsiyasi, badiiy motiv, detal, uslub kabi jihatlarni qamrab olishi. Tarjimashunoslikning soha amaliyoti, tanlash,

tasniflash, bir tildan boshqa tilga o'girish va tarjima, uslub singari tomonlari "Qiyosiy adabiyotshunoslik"ning amaliy masalalari hisoblanishi. Tarjimashunoslikka oid muhim tushunchalar. Tarjima – adabiyotlararo kommunikatsiya vositasi. Tarjima – komparativistika obyekti.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik. Tilshunoslikda germanistika va slavistika. Sanskrit va F.Bopp qiyosiy grammatikasi. V.Gumboldt falsafasi. A.Shleyxer ta'limoti. G.Shteyntal ta'limotida til va halq psixologiyasi. Boduen de Kurtene va F. de Sossyur ta'limotida til sistemasi.

Qiyosiy adabiyotshunoslikda sinkretizm masalasi. A.N.Veselovskiyning sinkretizm nazariyasiga oid qarashlari. Tarixiy poetikada "psixofizik katarsis" masalasi va uning cheklangan jihatlari. "Tarixiy poetika" va sinkretizm nazariyasi qiyosiy adabiyotshunoslikning badiy-tarixiy, ilmiy-estetik asosi sifatida. Sinkretizm nazariyasining kashf etilishi, tarixiy-madaniy asoslari, ilmiy-nazariy kriteriylari: sinkretizm va tipologiya. Sinkretizmning tarixiy tadrij bosqichlari: din, mif, adabiyot sinkretizmi. Jahon adabiyoti namunalarining kompleks shakllanishi, taraqqiyotida tipologiklik tamoyilining o'rni. A.N.Veselovskiy o'zining "Tarixiy poetikadan uch bob" osli tadqiqoti.

Tilshunoslik metodlari. Bilish usullari va tilshunoslik metodlari. Tilni o'rganish metodologiyasi va metodlari. Tavsifiy metod. Qiyosiy-tarixiy metod. Struktur metod va uning yo'nalishlari. Funksional lingvistika. Deskriptiv lingvistikaning tahlil metodlari. Distributiv tahlil metodi. Transformatsiya metodi. Tasviriy metodning asosiy usullari. Distributiv metod. Paradigma usullari va paradigmatic metodika. Oppozitsiya usuli. Semantik maydon usuli. Pozitsion usullar. O'zgartirishlar usuli va transformatsion metodika. Statistik usullar.

Ilohiy kitoblar va mifologik tafakkur qiyosiy adabiyotshunoslik muammosi sifatida. Ilohiy kitoblarning bashariyat poetik tafakkur namunalarining birlamchi asosi ekanligi. Ilohiy kitoblarda kelgan qissa, hikoya, rivoyatlar, shaxslar tarjimai holining miflarda aks ettirilish sabablari va omillari. Ilohiy kitoblar, Pyg'ambarlar tarixi va epos tipologiyasi masalasi. Ilohiy kitoblar va boshqa ajabiy janrlar aro mushtarakliklar.

Qiyosiy tipologiya - tilshunoslikning tarmog'i sifatida. Asosiy muammolar va yo'nalishlar. Qiyosiy tilshunoslikning paydo bo'lish sabablari. Qiyosiy metodning universallik xususiyati. Lingvistik va nolingvistik tipologiya. Qiyosiy tipologiyada kategoriyalash muammolari. Tipologik kategoriyalar. Qiyosiy tipologiyaning umumiy tasnifi. Turli til sistemalarini qiyosiy o'rganishning zamonaviy metodlari. Tilshunoslikda yangi yo'nalishlarning mavjudligi va ularning qiyosiy tipologiyada qo'llanilishi.

Sharq va G'arb eposlarini tipologik o'rganishning umumnazariy muammolari. Epos genezisi. Eposning badiiy-tarixiy xususiyatlari. Epos va epik janrlar masalasi. Epos va roman. Epos strukturasidagi tipologik komponentlar. Epos syujeti tipologiyasi. Epos qahramonlari tipologiyasi: tug'ilish, safar, tutqunlik va qaytish motivlari. Eng qadimgi davr eposlari haqida. Eng qadimgi davr eposlarining tipologik xususiyatlari: Sharq va G'arb eposlari. "Bilgamish" va turkiy epos an'analari.

Qiyosiy tilshunoslikning dolzarb masalalari to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Qiyosiy tipologiyaning shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari va faktorlari. Tillarning geneologik tasnifi, tillar qarindoshligi haqida ma'lumot. Qiyosiy tipologiyaning asosiy parametrlari. Izomorfizm va allomorfizm xususiyatlari. Qiyoslashda sinxron va diaxron yondashish. Tillararo va bir til ichidagi qiyoslash xususiyatlari. Qiyosiy tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati.

Dramatik janrlarni qiyosiy o'rganish masalasi. Dramatik tur va uning genetik omillari: difiramb, satirlar dramasi, fallarning marosimga oidligi va tipologik xususiyatlari. Dramaning epos, qissa, ertak va hikoya janrlari bilan bog'liqligi. Tragediya va undagi epik unsurlar masalasi. Tragik syujet, tragik obraz, tragediyaviy dialogning falsafiy, tarixiy, folkloristik asoslari. Qadimgi teatr va dramaning tarixiy-nazariy xususiyatlari. Sharq teatrining xususiyatlari. Qadimgi yunon teatri.

Inson fikrini til vositasi orqali ifodalashning o'ziga xos qonunlari. Barcha til tizimlari uchun mushtarak bo'lgan belgilarni ifodalashdagi muvofiqlik va nomuvofiqlik. Tilshunoslikda "shakldan ma'noga" va "ma'nodan shaklga" tamoyillarining qo'llanilishi. Lingvistik tushunchalarni tilning turli yaruslarining o'lchov birliklari va konstituentlari orqali ifodalanishi. Ularning universallik xususiyati.

Sharq va G'arb lirikasining tipologik xususiyatlari. Eng qadimgi davr lirikasi: Shumer, Misr, Yunon she'riyatida mavzu, talqin va obrazlar mushtarakligi. Qadimgi Rim shoirlari ijodi va ellinistik lirikaning mazmun-shakl jihatidan aloqadorligi. Qadimgi Sharq she'riyatining qadim yunon lirikasi bilan munosabati. Uyg'onish davri Sharq va G'arb lirikasi. Provans maktabi va Sharq mumtoz she'riyati. Fransuz ma'rifatchilari, tanzimon davri Turk she'riyati va jadid lirikasining umumiy va xususiy jihatlari. Zamonaviy Lotin Amerikasi va yangi o'zbek she'riyati: G.Lorka va Shavkat Rahmon.

Qiyosiy tipologiyaning umumiy tasnifi, qiyosiy tipologiyada kategoriyalash muammolari. Ob'ektiga ko'ra, til tarmoqlariga ko'ra, tilning ikki planiga ko'ra. Turli til sistemalarini qiyosiy o'rganishning zamonaviy metodlari. Grammatik kategoriya haqida ta'limot. Grammatik va mantiqiy kategoriyalar o'rtasidagi mutanosiblik. Tushuncha kategoriyalar. Funktsional-semantik kategoriyalar. Grammatik-leksik maydon. Tipologik ma'no va tipologik forma. Tipologik kategoriyaning tillararo, yaruslararo va so'z turkumlariaro xususiyatlari. Tipologik kategoriyalarning ifodalanishdagi mazmun va ifoda planlari birliklarining tillararo aloqasi. Ifoda planidagi til tizimi o'lchov birliklarining tillararo adekvatligi va adekvat emasligi, ularning yaruslararo sinonimligi, ularning taskonomik masalalari.

Jahon poetika ilmi tipologiyasi: Platon, Aristotel, Farobiy va Ibn Sino. Suqrot dialoglarining Aristotel talqinida yangilanishi. Platon va Aristotel badiiy adabiyot haqida: mushtarak va ziddiyatli masalalar. Aristotelning "Ritorika", "Poetika" asarlarida nazariy adabiyotshunoslik muammolarining aks etishi. Forobiy va Ibn Sino asarlarida Yunon poetiklari asarlari sharhi va talqini. Qadimgi

yunon mutafakkirlarining nazariy qaydlari. Sharq allomalarining tarixiy va nazariy poetikaga doir qarashlari.

Tilning boshqa sathlarini tadqiq etishda kategoriyalash muammolari. Tilning leksik sathini tadqiq etishda kategoriyalash muammolari. Leksikani tizim sifatida qaralishi va tipologik yondashish imkoniyatlari. Turli qardosh va qardosh bo'lmagan tillardagi ayrim xususiyatlarni fonologik, grammatik, semantik, etimologik, leksik va stilistik nuqtai nazardan solishtirish. Interferençiya muammolari. Qiyosiy tipologiyaning leksikografiya, stilistika, tarjima nazariyasi va til o'qitish metodikasi kabi fanlar bilan uzviy bog'liqligi. Tilshunoslikda yangi yo'nalishlarning mavjudligi va ularning qiyosiy tipologiyada qo'llanilishi. Til va madaniyat. Qiyoslanayotgan tillarning milliy-madaniy xususiyatlarining barcha til sathlarida namoyon bo'lishi. Kognitiv tilshunoslik haqida ta'limot.

Sharq va G'arb adabiyotida O'rta asrchilik, Renessans muammosi. G'arb o'rta asrchiligi va masixiylik. O'rta asr eposlari, lirikasi va riqar romanlarida sharqona motivlar. G'arb va Sharq O'rta asr badiiy-falsafiy tafakkurida johiliya, turg'unlik, inkvizitsiya masalasi talqinlari. O'rta asrlarda diniy qarashlar va adabiyot munosabati masalasi. O'rta asr Evropa adabiyotida drama. Renessans tushunchasi va uning mohiyati. Sharq Uyg'onish madaniyatining G'arbga ta'siri. G'arb Renessansi davrida tarjima adabiyotining o'rni. Sharq va G'arb lirikasida oshiq-ma'shuqa-raqib obrazlari.

Sharq va G'arb klassitsizmi: umumiylik va xususiylik. Klassitsizm umuminsoniy hodisa sifatida. Islomgacha bo'lgan Sharq folklorida klassitsizm tamoyili. Sharq-islom klassitsizmi va uning genetik omillari: Qur'oni karim, hadis, Payg'ambarlar tarixi. G'arb klassitsizmining madaniy, ijtimoiy, falsafiy omillari: Antik Yunon, ellinizm davri va qadim Rim san'ati va madaniyati. Fransuz, ingliz, nemis, ingliz klassitsizmining umumiy va xususiy jihatlari. G'arb klassitsizmida Rene Dekart va Nikola Bualoning o'rni. Sharq va G'arb klassitsizmining umumiy va farqli jihatlari. Klassitsizm nazariyasining asosiy kriteriyalari: "mutlaq did", kanonlashtirish, kanonik uslub, "uch birlik" tushunchalari.

Sharq va G'arb ma'rifatchiligi: tipologiya masalalari. Ma'rifatchilik hodisasining ma'rifiy asoslari: ilohiy kitoblar va umumbashiriy etika. Ma'rifatchilik adabiy hodisa sifatida. Ma'rifatchilik adabiyotining mazmun mohiyati: umumfalsafiy muammolar. G'arbda ma'rifatchilik harakati: ingliz, nemis, fransuz ma'rifatchilik adabiyoti. Fransuz ma'rifatchiligining o'ziga xos xususiyatlari. Turkiston jadidchiligi, jadid estetikasining yetakchi xususiyatlari. Fransuz ma'rifatchiligi va jadid adabiyoti.

Sharq va G'arb badiiy tafakkurida sentimentalizm, romantizm, naturalizm, realizm. Sentimentalizm, romantizm, naturalizm va realizmning umumfalsafiy, umumestetik, umumnazariy muammolari. J.Berkli, D.Yum, I.Kant, O.Kontning estetik konsepsiyalari. Sentimental adabiyotning Sharq-u G'arbga oid xususiyatlari. Sentimentalizm adabiyotining badiiy kriteriyalari. Romantizmning ijtimoiy-estetik omillari: Sharq va G'arb romantizmi. Umumiylik va o'ziga xoslik masalasi. Naturalizm adabiyotining tabiat, industriya, insoniyatga xos pozitivistik nuqtai nazar bilan bog'liqligi. Realizm adabiyoti va uning ko'rinishlari: ibtidoiy realizm, tanqidiy realizm, sotsiorealizm va oliy realizm muammolari.

Jahon modernizm adabiyoti. Modernizm tarixi, ijtimoiy, falsafiy, psixologik omillari. Dekadentlik, avangardizm, absolyutizm, ekzistensiya va absurdlik tushunchalari. Ayni tushunchalarning ijtimoiy-falsafiy asosga egaligi. Modernistik adabiyotning yo‘nalish va oqimlari. Modernistik adabiyot vakillari: J.Joys, J.-P.Sartr, F.Kafka. Modern nasr, modern she‘riyat, “absurd drama”. Evropa modernizmi va yangi o‘zbek adabiyoti masalasi: F.Kafka va N.Eshonqul.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so‘zi, 2017-yil 4-avgust.
2. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили.-Тошкент: Академнашр, 2011.-200 б.
3. Abduazizov A.A. Элементы общей и сравнительно-типологической фонологии. – Т.: Фан, 1981.
4. Bo‘ronov J. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. – Т.: O‘qituvchi, 1973.
5. Буранов Ж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983.
6. Jo‘raqulov U., Xalliyeva G., Qosimov A. Qiyosiy adabiyotshunoslik: darslik. – Т., 2025
7. Jo‘raqulov U., Hamroyev K. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Т., 2020.
8. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Т.: Akademnashr, 2020.
9. Қосимов А., Ҳамроқулов А., Хўжаев С. Қиёсий адабиётшуносликка кириш. – Ф.: Фарғон адават университети, 2019
10. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Т.: Akademnashr, 2020.
11. Абдуазизов А.А. Элементы общей и сравнительно-типологической фонологии. – Т.: Фан, 1981.
12. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. – М.: Просвещение, 1990.
13. Буранов Ж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983.
14. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М., 1989.
15. Кодухов В.И. Общее языкознание. – М., 2009.
16. Мелетинский Э.М. Историческая поэтика. Новеллы. – М., 1990.
17. Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Т.: Fan, 2005.
18. Юсупов У.К. Проблемы сопоставительной лингвистики. – Т.: Фан, 2007.
19. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. – Т., 1983.

20. Сирожиддинов С., Одилова Г. Бадиий таржима асослари. – Т.: Mumtoz so‘z, 2011.
21. Йўлдошев У. Таржиа назарияси. – Самарқанд, 2021.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

22. Fillmore Charles J. Remarks on Contrastive Pragmatics // In - J.Fisiak (ed.), Contrastive Linguistics- Prospects and Problems. - Padstow, 1984.
23. Komilov N. Tafakkur karvonlari. – Т., 1999.
24. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. – Т., “O‘zbekiston”, 1997.
25. Абдуллаев Ю.Н., Бушуй А.М. Иностранные языки в современном мире: эволюция методики обучения. - Т.: Фан, 2000.
26. Абдуллаев Ю.Н., Бушуй А.М. Язык и общество. - Т.: Фан, 2002.
27. Академические школы в русском литературоведении / Отв.ред. П.А.Николаев. – М: Наука.1975.
28. Алексеев М.П. и др. История зарубежной литературы. (Средние века и возрождение) М., «Высшая школа», 1987.
29. Алексеев М.П. Сравнительное литературоведение М.: Наука, 1983.
30. Алишер Навоий “Хамса”си (Мақолалар тўплами): Тадқиқотлар.- Тошкент: Фан, 1970.
31. Араслы Н. Г. Низами ва турк едебияти.-Баку: Елм,1980.-206 с
32. Аристотел. Поэтика. Ахлоқи кабир. –Т., Янги аср авлоди. 2004.
33. Афансеев А.Н. Дерево жизни. -М., 1982.
34. Балухатый С.Д. Вопросы поэтики.-Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1990.-320 с.
35. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики.-Москва: Художественная литература, 1975.-399 с.
36. Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского.-Москва: Советский писатель, 1963.-362 с.
37. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп сҳақллари. Таржимон, сўзбоши, шарҳ ва изоҳлар муаллифи У.Жўракулов.-Тошкент: Академнашр, 2015.-288 б.
38. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Курс лекций по английской филологии. - Тамбов, 2001.
39. Бондарко А.В. Семантические категории в аспекте сопоставительных исследований // Сопоставительная лингвистика и обучение неродному языку. -М.: Наука, 1987.
40. Борисова И.Ф., Имяминова Ш.С. Таржима назарияси ва амалиёти. - Тошкент. 2005.
41. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи.-Тошкент: Ўзбекистон, 1993.-191 б.
42. Вежбицка А. Семантические универсалии и описание языков. - М., 1999.
43. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.1989

44. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт.-Бухоро: Бухоро нашриёти, 1994.-208 б.
45. Гак В.Г. Сопоставительная прагматика // Филологические науки. – М., 1992. - №3.
46. Ғафуров И. Таржимонлик мутахассислигига кириш. - Тошкент. 2008.
47. Қамбаров Н. Таржима трансформацияларининг лингвокультурологик ва когнитив хусусиятлари. – Т., 2019.
48. Йўлдошев У. Бадиий таржиманинг лингвостилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари. – Самарқанд: 2022.
49. Голосовкер Я. Логика мифа. – М.,1987.
50. Городецкий Б.Ю. К проблеме семантической типологии. - М., 1989.
51. Грамматика общая и рациональная Пор-Рояля. - М.: Прогресс, 1990. Грамматика общая и рациональная Пор-Рояля. - М.: Прогресс, 1990.
52. Гулыга Е.В., Шендельс Е.И. Грамматико-лексические поля в современном немецком языке. - М.: Просвещение, 1969.
53. Дима.А. Принципы сравнительного литературоведения. -М.1977.
54. Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы.- М.1979.
55. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Изб.пр. – М.: Наука. 1979.
56. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Изб.пр. – М.: Наука. 1979.
57. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп.-Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.-356 б.
58. Журина М.И. Лингвистическая типология. Общее языкознание. Внутренняя структура языка. - М.: Наука, 1972.
59. Ильин И.П. современные концепции компаративистики и сравнительного изучения литератур. - М.1987
60. История всемирной литературы. Т., 1-7. М., «Наука», 1983-1990.
61. Канцельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. - Л.: Наука, 1972.
62. Климов Г.А. Основы лингвистической компаративистики. - М.: Наука, 1990.
63. Когнитивные и коммуникативные аспекты английской лексики. - М., 1990.
64. Колшанский Г.В. Проблема универсалий языка // Общее языкознание. Внутренняя структура языка. - М.: Наука, 1972.
65. Комилов Н. Тасаввуф.-Тошкент: Ўзбекистон, 2009.- 448 б.
66. Конрад Н.И. Запад и Восток.- М.: Наука.1972.
67. Крамер С.Н. История начинается в Шумере.-Москва: Наука, 1991.- 235 с.
68. Кун Н.А. Легенды и мифы древней Греции.-М., 1955.
69. Қамбарова Д. Қуръон баҳс этган илҳом (Пушкин ижодида Қуръон оҳанглари). – Т.: “Тошкент ислом университети” насхриёт-матбаа бирласхмаси, 2009.

70. Қодиров М., Ўзбек театри тарихи, Т., 2003
71. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. – Т.: “Фан”, 2008.
72. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. - Минск, 2004.
73. Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-е издание. - М.: 2004.
74. Маҳмудов М. Ҳайрат ва тафаккур.-Т., 1990
75. Мелетинский Е.М. Историческая поэтика новеллы.-Москва: Наука, 1990.-280 с.
76. Мусаев К. Таржима назарияси асослари. Тошкент. 2005.
77. Новое в зарубежной лингвистике. Контрастивная лингвистика. Вып. 25. - М.: Прогресс, 1989.
78. Новое в лингвистике. Типологическое изучение языков. Вып. III. - М.: Иностран.литер. 1963.
79. Пруцков Н.И. Историко-сравнительный анализ произведений художественной литературы. –Л.:Наука,1974.
80. Пруцков Н.И. Историко-сравнительный анализ произведений
81. Реизов Б.Г. Сравнительное изучение литературы. Вопросы методологии литературоведения. – М.-Л.: Наука, 1966. -С.170-217
82. Саидов У. Шарқ ва Ғарб: маданиятлар туташган манзиллар. –Т.: Янги аср авлоди.2009
83. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. - Тошкент. 1978.
84. Саломов Ғ., Отажонов Н. Таржима маҳорати. - Тошкент. 1989.
85. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах. «Сангзор» - 2006.
86. Селиверстова О.Н. Контрастивная синтаксическая семантика. Опыт описания. - М.: Наука, 1990.
87. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев.- Тошкент: Ўқитувчи, 1995.-112 б.
88. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Алишер Навоий даври.- Тошкент: Академнашр,2011.-272б.
89. Ярцева В.Н. Контрастивная лингвистика. - М.: Наука, 1981.

Internet saytlari:

90. www.susov.ru
91. www.ziyo.net
92. www.google.uz
93. www.tdpu.uz
94. www.pedagog.uz
95. www.edu.uz
96. www.tdpu-INTRANET.ped
97. www.nutq.intal.uz

Baholash mezonlari

Kirish sinovi ogʻzaki ravishda oʻtkazilishi belgilangan boʻlib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qoʻyiladigan talablar
86-100	Qoʻyilgan savolga toʻliq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yoʻl qoʻyilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon yetilgan. Xulosani toʻgʻri shakllantirgan. Fikrlar yerkin bayon yetilgan.
71-85	Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
55-70	Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.
0-54	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol boʻyicha aniq tasavvurga ega yemas.

NAMUNAVIY SAVOLLAR:

Qiyosiy adabiyotshunoslik

1. Qiyosiy adabiyotshunoslikka xos xususiyatlar.
2. Qiyosiy adabiyotshunosning taraqqiyot bosqichlari.
3. Dunyo komparativizm maktablari.
4. Qiyosiy-tarixiy metod va uning asosilari.
5. A.N.Veselovskiy ilmiy faoliyati va nazariy kriteriylari
6. Qiyosiy tahlil obyektlari va vazifalari.
7. Qiyoslanishi zarur boʻlgan tipik vaziyatlar.
8. Qiyoslash jarayonidagi eng muhim bosqichlar.

9. Zarurat – obyekt – mohiyat algoritmidagi qiyosiy tahlilni amalga oshirish mexanizmini tushuntiring.

10. Qiyosiy tahlil metodlari.

11. Qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-chog‘ishtirma metodlari

12. Tarjima qiyosiy adabiyotshunoslikning obyekti.

13. “Tarixiy poetika” tushunchasi, metodologik xususiyatlari.

14. Tarixiy poetikada “sinkretizm” tushunchasi va uning adabiyot namunalarini qiyosiy o‘rganishdagi o‘rni.

15. Tipologik o‘xshashliklar va D.Dyurishin nazariyalari.

16. Tipologiya va tipologik mushtaraklik tushunchalariga izoh bering.

17. Adabiyotshunoslikda multikulturalizm tushunchasi.

18. Adabiyotlararo jarayonning davrlashtirish masalasi.

19. Sinkretizmning tarixiy tadrij bosqichlari: din, mif va adabiyot sinkretizmi.

20. Din va mif, ilohiy kitoblar va epos munosabatini o‘rganishda tipologiya konsepsiyasining o‘rni.

21. Eng qadimgi davr eposlarining badiiy xususiyatlari.

22. Qadimgi davr eposlarining tarixiy-nazariy xususiyatlari.

23. Din, mif va eposlardagi mushtarak jihatlar.

24. Sharq eposlarida qahramon obrazining tipologik xususiyatlari.

25. Sharq va G‘arb eposlarining mushtarak va o‘ziga xos xususiyatlari.

26. Dramaning keng va tor ma‘nolarini sharhlang.

27. Dramaning tipologik xususiyatlari.

28. Mif va drama munosabati hamda tipologiyasi.

29. Sharq va G‘arb dramalarining mushtarak xususiyatlari.

30. Qadimgi dunyo lirikasiga oid qanday nazariy qarashlarni bilasiz? .

31. Qadimgi dunyo lirikasida vazn va ritmning o‘rni.

32. Qadimgi Sharq lirikasi va xalq og‘zaki ijodi.

33. Platonning estetik qarashlari.

34. Aristotelning “Poetika” asarida janrlar muammosi talqini.

35. Farobiy va Ibn Sinoning adabiy-nazariy qarashlari.

36. Sharq va G‘arb mutafakkirlari Aristotel va Farobiy adabiy qarashlaridagi mushtarakliklar.

37. Sharq va G‘arb O‘rta asrlar adabiyoti va diniy qarashlar mohiyati.

38. O‘rta asr adabiyotiga oid asarlar haqida so‘zlang.

39. O‘rta asrlarda antik adabiyotga bo‘lgan munosabat.

40. Ritsar lirikasi va Sharq adabiyotining aloqadorligi.

41. Sharq va G‘arb uyg‘onish adabiyotining yuzaga kelish omillari.

42. Sharq va G‘arb uyg‘onish adabiyotidagi adabiy aloqalar.

43. Ibn Sino ijodining G‘arb uyg‘onish adabiyotidagi ta‘siri.

44. Sharq va G‘arb uyg‘onish adabiyotiga xos mushtarak xususiyatlar.

45. Sharq hikoyatlarining “Dekameron” asaridagi badiiy talqini.

46. Servantes ijodining o‘ziga xosligi.

47. “Qoliplovchi hikoya” Sharq va G‘arb novellistikasidagi tipologik xususiyat sifatidi.

48. Klassitsizm hodisasining ildizlari, istilohiy mazmuni va psixologik funksiyalari.
49. Klassitsizm umuminsoniy, umumestetik tamoyil sifatida.
50. G'arb klassitsizmi va uning yetakchi xususiyatlari.
51. Islom Sharqiga xos klassitsizm tamoyili va uning G'arb klassitsizmi bilan munosabati
52. Ma'rifatchilik adabiyotining nazariy asoslari.
53. Fransuz ma'rifatchilik adabiyotiga oid asarlar tasnifi va talqini.
54. Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va fransuz ma'rifatchiligi.
55. Jadid adabiyoti yangi estetikaning shakllanish xususiyatlarini sharhlang.
56. Romantizm va uning etakchi vakillari.
57. Realizm va naturalizm adabiyotining qanday umumiy jihatlari va o'ziga xosliklari bor.
58. Sentimentalizm, romantizm, realizm, naturalizm adabiyotining o'zaro bog'liq va farqli jihatlari.
59. Modernizm tarixi, odabiy oqimlari, vakillari.
60. Modern nasr va dramasi asosiy xususiyatlari.
61. Simvolizm va modernizm: umumiylik va xususiylik.
62. Ekzistensializm va absurd.
63. Modernizm va zamonaviy Sharq badiiy tafakkuri masalasi.
64. Modernizm haqida G'arb va o'zbek olimlarining qarashlari.
65. Modernizm va o'zbek adabiyoti.
66. Postmodernizm janrlar mutatsiyasi.
67. Postmodern adabiyotida intertekstuallik.
68. Struktur adabiyotshunoslikda "muallif o'limi" konsepsiyasi.
69. Postmodernizm va bugungi o'zbek adabiyoti manzarasi.
70. Globallashuv davrida adabiyot.

Chog'ishtirma tilshunoslik

1. "Muhokamat ul-lug'atayn"da eski o'zbek va sart tillarining chog'ishtirilishi.
2. Agglyutinativ tillarga xos xususiyatlar.
3. Amerika deskriptiv tilshunosligi.
4. Antropotsentrik tilshunoslik.
5. Asosiy grammatik kategoriyalar
6. Diachron va synchron tadqiqot metodlari
7. Diskurs nazariyasi.
8. Diskurs turlari
9. Dunyo tillari tavsifi va tasnifi
10. Eng qadimgi til va bobo til.
11. Freym tahlil metodi.
12. Funktsional uslublarning voqelanishi.
13. Grammatik ma'nolarni ifodalovchi sintetik va analitik vositalar

14. Hozirgi tilshunoslik yo'nalishlari.
15. Ichki fleksiya va suppletivizm
16. Ilmiy uslubning voqelanishi.
17. Interferensiya hodisasi
18. Intertekstuallik kategoriyasi.
19. Izomorfizm va allomorfizm metodlari.
20. Kognitiv bilim strukturalari va turlari.
21. Kognitiv diskursiv paradigma.
22. Kognitiv lingvistika nazariyasi
23. Kognitiv metod.
24. Konnotativ ma'no va stilistik bo'yoqdorlik.
25. Konseptual tahlil
26. Kopenhagen strukturalizmi. Glossematika.
27. Korpus lingvistikasi
28. Lingvistik tahlil metodlari
29. Lingvistikada zamonaviy yondashuvlar.
30. Lingvokulturologiya (madaniy lingvistika) zamonaviy yo'nalish sifatida.
31. Lisoniy dunyo manzarasi va turlari.
32. Lug'at turlari.
33. Madaniy konsept voqelanishi.
34. Madaniy konseptning verbal ifodalanishi
35. Madaniy lingvistika turlari
36. Matn kategoriyalari.
37. Matn lingvistikasi: zamonaviy yondashuvlar.
38. Matn tipologiyasi
39. Matnning kognitiv nazariyasi
40. Matnning madaniy tahlili
41. Matnning pragmatik nazariyasi.
42. Mualliflik korpuslari va parallel korpuslar.
43. O'rta asrlar tilshunosligi
44. Paradigma tushunchasi
45. Pragmatika antropotsentrik tilshunoslik negizida.
46. Qadimgi asrlar tilshunosligi
47. Qiyosiy tipologiya nazariyasi.
48. Semiotika.
49. Sintetik va analitik tillar
50. So'z leksik ma'nosining kengayishi va torayishi
51. So'z moddiy tarkibining o'zgarishi
52. So'z semantik qurilishida sodir bo'luvchi hodisalar.
53. Statistik tahlil metodi
54. Stilistik vositalarning madaniy ahamiyati.

- 55.Strukturalizm va so‘z turkumlari muammosi
- 56.Strukturalizm. Praga strukturalizmi. Funksional tilshunoslik.
- 57.Substansiya va forma
- 58.Til birliklari o‘rtasidagi munosabatlar
- 59.Til ijtimoiy hodisa sifatida.
- 60.Til kategoriyalarining voqelanishi.
- 61.Til va nutq mutanosibligi.
- 62.Tillarning shakllanishi va rivojlanishi
- 63.Tilning ekstralingvistik omillar bilan bog‘liqligi.
- 64.Tilning ijtimoiy vazifalari.
- 65.Tilning ikki jihati. Paradigmatika va sintagmatika.
- 66.Tovushlarning nutqda pozitsion o‘zgarishlari.
- 67.Umumiy va maxsus lug‘atlar.
- 68.Yevropa uyg‘onish davridagi tilshunoslik
- 69.Yosh grammatikachilar maktabi.
- 70.Zamonaviy lug‘atlar

Tarjimashunoslik

1. Tarjima tushunchasining asosiy mohiyati.
2. Tarjima nazariyasining shakllanish bosqichlari va Jahon tarjima maktablari.
3. O‘zbekistonda tarjima nazariyasining taraqqiyot bosqichlari.
4. Tarjima nazariyasi va amaliyoti rivojida G‘.Salomovning o‘rni.
5. O‘zbek tarjimashunosligi va tarjima amaliyotida I.G‘afurov hisssasi.
6. O‘zbekistonda tarjima amaliyoti tarixi.
7. Tarjima – tilshunoslikning tadqiqot obyekti.
8. Tarjima – komparativistikaning obyekti sifatida.
9. Tarjima – adabiyotlararo muloqot vositasi sifatida.
10. Tarjimani tasniflash mezonlari.
11. Yozma tarjimaning asosiy mohiyati
12. Og‘zaki tarjimaning asosiy mohiyati va turlari.
13. Tarjima uslubining tarjima usulidan farqli jihatlari.
14. Tarjima uslubining vazifaga ko‘ra turlari.
15. Tarjima usullari va uning asosiy mohiyati
16. Ekvivalentlik va uning turlari.
17. Tarjima transformatsiyalari.
18. Leksik transformatsiya qanday amalga oshiriladi?
19. Grammatik transformatsiya qoidasini tushuntirib bering
20. Tarjima transformatsiyalari haqida olimlarning turli qarashlari.
21. Tarjimashunoslikda tarjima jarayoni termini mohiyati.
22. Tarjimada kalkalash usuli.
23. Tarjimashunoslikda transpozitsiya va modulyatsiya tushunchalari.

24. Tarjimada transkripsiya va transliteratsiya.
25. Soʻz almashtirish – tarjima transformatsiyasi sifatida.
26. Tarjimonning asosiy kompetensiyalari.
27. Tarjimonning kasbiy kompetensiyalari.
28. Tarjimonning lingvistik kompetensiyalari
29. Tarjimonning sotsio-madaniy kompetensiyalari
30. Tarjimada ekvivalentlik va adekvaklik.
31. Asliyat va tarjima matn oʻrtasidagi muvozanat.
32. Ekvivalentlikning yuqori darajasini taʼminlovchi modellar.
33. Ekvivalentlik darajalari.
34. Funksional ekvivalentlik nima?
35. V.N.Komissarovning ekvivalentlik tiplari haqidagi nazariy qarashlari.
36. Y.I.Retskerning ekvivalentlik tiplari haqidagi nazariy qarashlari.
37. L.Barxudarov talqinidagi tarjima transformatsiyalari.
38. Tarjima nazariyasida qiyosiy tahlil mohiyati.
39. Tarjimonni chalgʻituvchi leksik birliklar.
40. Tarjimon etikasi.
41. Tarjimonga qoʻyiladigan talablar.
42. Tarjimaning lingvistik muammolari.
43. Tarjimaning ekstralingvistik muammolari.
44. Tarjimashunoslikda “madaniyat” tushunchasi.
45. Til, madaniyat va tarjima masalasi.
46. Tarjima transformatsiyalarining lingvomadaniy xususiyatlari.
47. Tarjima transformatsiyalarining kognitiv xususiyatlari.
48. Frazologik birliklarning tarjimada berilishi.
49. Milliy xususiyat va tarjima. Xos soʻzlarning tarjimada berilishi.
50. Milliy xususiyatli frazeologik birliklar tarjimasi.
51. Muqobilsiz til birliklarini tarjima qilish usullari.
52. Tarjima pragmatik jihatlari.
53. Qiyosiy stilistika – tarjimaviy tadqiqot asosi.
54. Sinxron tarjimaning oʻziga xos xususiyatlari.
55. Badiiy tarjimada maʼnaviy bilimlar (fon bilimlari) ahamiyati.
56. Tarjimada leksik birliklarni tanlash.
57. Tarjima modellari.
58. Tarjimada shakl va mazmun.
59. Tarjimaning leksik, grammatik va stilistik muammolari.
60. Sinxron tarjimada kompressiya va dekompressiya masalasi.